

**“AYOLLAR DAFTARI” RO‘YXATIGA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA  
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHLASH VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILISH  
UCHUN KERAK BO‘LGAN ASBOB-USKUNA, MEHNAT QUROLLARI XARID  
QILISH UCHUN 10 MLN SO‘MGACHA SUBSIDIYA BERILADI**

**Tojiboyev Abdulfayoz Ulug‘bek o‘g‘li**

Bektemir tumanı Adliya bo‘limi Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15099405>**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022 yildagi 145-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan, “Ayollar daftari”ga kiritilgan tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan xotin-qizlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari (tikuvchilik, to‘qimachilik, pazandachilik, soch turmaklash, duradgorlik, chilangarlik, qurilish, qishloq xo‘jaligi (motokultivator, o‘t o‘rish o‘roq mashinasi, payvandlash apparati, o‘simgliklarga ishlov berish qurilmasi) va boshqa sohalarda ishlatiladigan mehnat qurollari va apparatlarini xarid qilish uchun 10 million so‘mgacha Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda yoki “Ayollar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “mahalla yettiligi”ning kollegial qarori asosida “Ayollar daftari” jamg‘armasi Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq subsidiya ajratiladi.

Bunda “Ayollar daftari” jamg‘armasi orqali asbob-uskuna, mehnat qurollari xarid qilish maqsadida subsidiya ajratish uchun ariza beruvchi o‘z faoliyatini boshlashi uchun kerak bo‘ladigan asbob-uskuna, mehnat qurollarining nomi va turi, soni, taxminiy xarid narxi va boshqa qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rsatgan holda mahalladagi xotin-qizlar faoliga murojaat qiladi.

Xotin-qizlar faoli arizani “mahalla yettiligi”ning kollegial yig‘ilishiga kiritadi. Ariza beruvchining qolgan barcha ma’lumotlari xususan, elektron shakldagi fuqarolik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi nusxasi, tadbirkor sifatida davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi yoki o‘zini o‘zi band qilgan sifatida faoliyat turlari bo‘yicha soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatlari axborot tizimi orqali inson omilisiz aniqlab olinadi.

“Mahalla yettiligi” tomonidan fuqaroning murojaati 3 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘rganib chiqiladi hamda “mahalla yettiligi”ning subsidiya ajratish to‘g‘risidagi kollegial qarori qabul qilinadi va 1 ish kuni ichida Vasiylik kengashiga taqdim etadi.

Arizani ko‘rib chiqish natijasida hujjatlар to‘liq taqdim etilgan va unda kamchiliklar yoki yolg‘on ma’lumotlar aniqlanmagan taqdirda, murojaat qiluvchiga o‘z faoliyatini boshlashiga kerak

bo‘lgan asbob-uskuna, mehnat quollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish to‘g‘risida Vasiylik kengashining qarori rasmiylashtiriladi. Vasiylik kengashi qarorida asbob-uskuna, mehnat quollarining nomi va ularni xarid qilish uchun ajratiladigan subsidiya miqdori ko‘rsatiladi.

Vasiylik kengashining ishchi organi — Oila va xotin-qizlar bo‘limi Vasiylik kengashi qarori rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali qarorda ko‘rsatilgan asbob-uskuna, mehnat quollarini belgilangan tartibda xarid qilish choralarini ko‘radi hamda buyurtma asosida asbob-uskuna va mehnat quollari yetkazib berilganda, bu haqda Vasiylik kengashining ishchi organi qabul qilib olgan kundan boshlab 1 ish kunidan kechiktirmay “mahalla yettiligi” orqali ariza beruvchini xabardor qiladi.

Ariza beruvchiga ajratilgan subsidiya asosida xarid qilingan asbob-uskuna yoki mehnat quollaridan samarali va maqsadli foydalanayotganligi, ularning texnik holati sozligi “mahalla yettiligi” tomonidan doimiy o‘rganib boriladi.

Demak, ta’kidlash joizki, mazkur qaror bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning hayoti, ijtimoiy holatini ijobiy tomonga o‘zgartirish va moddiy jihatdan ko‘maklashish hamda hozirda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, siyosatimizning asosiy bosh g‘oyasi sifatida muhim ro‘l o‘ynaydi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.